

# KOGLUMET

## IMMUNMODULLOVCHI VA VIRUSLARGA QARSHI INNOVASION PREPARAT

### QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

Preparatni qabul qilishdan avval yo'riqnomani o'qib chiqish tavsiya qilinadi, unda siz uchun muhim va foydali ma'lumotlar mavjud. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun siz davolovchi shifokorga yoki farmasevtga xamda to'G'ridan to'G'ri kompaniyaga murojat qilishingiz mumkin

"T A S D I Q L A N G A N"

O'zbekiston Respublikasi SoG'Liqliq  
Saqlash Vazirligi

Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini  
nazorat qilish bosh boshqarmasi

**Preparatning savdo nomi:** Koglumet

**Ta'sir etuvchi modda:** Koglumet – kobaltning glutamin kislotasi va vitamin U bilan kompleks birikmasidir.

**Chiqarilish shakli:** Tabletkalar, 0,005 g dan blisterlarda va flakonlarda.

**Farmakoterapevtik guruxi:** Immunmodullovchi va viruslarga qarshi vosita (sitokinlar induktori)

#### Farmakologik xususiyatlari

Koglumetning yaqqol klinik samarasi uning tarkibiy qismlarini xususiyatlari, shuningdek ularning endogen faolligini sezilarli ortiradigan yagona tarkib – biokompleksga birikkanligi bilan belgilanadi.

Koglumetning tarkibiga struktura shakllantiruvchi element sifatida kiritilgan kobalt xayotiy zarur mikroelement bo'lib, organizmda o'ta muhim rolni bajaradi. U oqsil, yog'va karbon suvlar almashinuviga ijobiy ta'sir qiladi, organizmda A, S va K vitaminlari, shuningdek V guruxi vitaminlarining to'planishiga yordam beradi, nikotin kislotasi, piridoksin va nikotin adenin dinukleotid sintezini kuchaytiradi. Kobaltning ta'sirida antioksidant tizimining fermentlari faollashadi, asosiy modda almashinuvini kuchayadi, to'qima nafasi yaxshilanadi. Kobalt mineral almashinuvini, shu jumladan organizm tomonidan temir, kaltsiy va fosforning o'zlashtirilishini xam yaxshilaydi.

Kobalt immunogenez jarayonining muhim omilidir. U komplement tizimini va antitelo xosil bo'lish jarayonlarini faollashtiradi, umumiy rezistentlikni ortishiga olib keladi, va oqibatda organizmning turli infeksiyalarga bo'lgan qarshiligi oshadi.

Koglumetning tarkibiga kiruvchi vitamin U transmetillanish, transsulfatlanish, transaminlanish kabi muhim biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etishi orqali metabolik jarayonlarda etakchi rol o'ynaydi. Detoksikasion, regenerasiyalovchi, antioksidant xossalriga ega. Transmetillanish jarayonlarida ishtirok etib, xujayra membranasining fosfolipidlari, neyrotransmitterlari, nuklein kislotalari, oqsillar, gormonlar va boshqa moddalarning sintezi

uchun zarur bo'lgan metil guruxlarining donori vazifasini bajaradi, shuningdek radikallar va qator ekzo - va endogen tabiatli toksik birikmalarni metillash yo'li bilan ularni zaxarli bo'lmagan shakllarga aylantiradi.

Vitamin U endogen fosfatidilxolinning sintezini normallashtiruviga, membranalarning regenerasiyasini tiklanishiga, ularning oquvchanligini va qutblanishini oshishiga yordam beradi, natijada hujayraning faoliyati tiklanadi va faollashadi. Kon'yugasiyalanish jarayonlarini faollashtirishi orqali gepatositlardagi o't-safro kislotalarining toksikligini kamaytiradi. Lipotrop ta'sirga ega, shuning uchun jigarning yog'li distrofiyasini oldini oladi, antigistamin va antiaterosklerotik xususiyatlarni namoyon etadi.

Koglumet tarkibiga kiruvchi glutamin kislotasi atsetilxolin sinteziga, kaliy ionlarini tashilishiga yordam beradi, bosh miyaning oq va kulrang moddasini oqsil va karbon suvlar almashinuviga ishtirok etadi. U miya to'qimasining hujayralarida ATF ko'rinishida energiyani xosil bo'lishi bilan kechadigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi, neyromediator vazifasini bajaradi.

Glutamin kislotasining muhim xususiyatlaridan biri, uni azot almashinuvini jarayonlaridagi ishtirokidir. U ammiakning zararsizlantirilishi va buyraklar orqali chiqarilishiga yordam beradi. Ammiakni bog'lab olish va uni zararsizlantirilishi Markaziy nerv tizimining normal faoliyatida, shu jumladan entsefalopatiyani oldini olishda yoki uni davolashda muhim rol o'ynaydi.

Koglumet umuman olganda hepatoprotektor, Antiparazitar, mikroblarga qarshi ta'sirlarga ega, va shuningdek yaqqol immunomodulyator, viruslarga (tsitokinlar induktori), xlamidiya va toksoplazmaga qarshi ta'sirlarga ega.

Preparat ham hujayra, ham gumoral immun javoblarining induktori xususiyatini namoyon qiladi.

Koglumet ta'siri ostida qisqa muddatlarda samarali immun javobga erishiladi. Preparat T - va

V-limfositlarni birlashishini rag'batlantirish yo'li bilan antitelolarni xosil qiluvchi xujayralarni ko'payishiga yordam beradi.

Koglumet interleykinlarni indusirovchi mexanizmlar orqali V-limfositlarning o'sishi va differentsirlashuviga olib keladi, makrofaglar va T-limfositlarni faollashtiradi, alohida sinf immunoglobulinlarning hosil bo'lishini induktsiyalaydi.

Preparat ta'sirida immunkompetent hujayralarning ko'payishini faollashtiruvchi markerlarga ega bo'lgan limfositlarning soni sezilarli oshadi.

Koglumet immunositlarda kechadigan ichki hujayra jarayonlariga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, shu orqali ularni tez etilishiga va spetsifik reseptor molekulalarni sinteziga yordam beradi.

Preparat turli immunopatologik hollarda o'zak hujayralarining proliferatsiyasiga stimullovchi ta'sir ko'rsatadi.

Koglumet immun javobida antigenlar raqobatini bartaraf qilish xususiyatiga ega va buning natijasida poliantigenlarning har bir turiga nisbatan yaqqol immunitetni shakllanishiga olib keladi.

Preparat yuqori va davomiy interferon induktsiyalovchi va interleykin induktsiyalovchi faolligi orqali viruslarga qarshi xususiyatlarni namoyon qiladi. Uning ta'siri ostida «ertangi» interferon sintezi kuzatiladi.

Preparat surunkali gepatit bilan xastalangan bemorlarda (shuningdek virus tashuvchanlik bilan kechuvchi) V va S gepatiti viruslariga nisbatan seronegativ reaksiyalarini kelib chiqishiga olib keladi, bilirubinni yuqori darajasini va jigar fermentlarining faolligini pasayishiga olib keladi, kattalashgan jigar o'lchamlarini samarali qisqartiradi, jigarning antitoksik xossalarini kuchaytiradi.

Preparatni xlamidiozi bo'lgan bemorlarni majmuaviy davolash tarkibiga qo'shilishi organizmni tez va to'liq sanasiya qilinishiga olib keladi.

Koglumetni OITV bilan infeksiyalangan va OITS bilan xastalangan bemorlarda monoterapiya preparati sifatida yoki ARVT preparatlari bilan birgalikda qo'llanilganda asosiy kasallikning klinik ko'rinishini barqarorlashuviga, immunologik ko'rsatkichlarning sezilarli yaxshilanishiga, xamda opportunistik infeksiyalarga bo'g'liq bo'lgan yo'ldosh kasalliklarning (gepatitlar, kamqonlik, TORCH-infeksiyalar va boshqalar) jadal regressiyasiga olib keladi.

OITV bilan infeksiyalangan va OITS bilan xastalangan bemorlar tomonidan preparatni qAbul qilinishi bemorlarning umumiy xolatini, uyqusini va ishtaxasini yaxshilaydi, xayotga bo'lgan qiziqishini,

ish qobiliyatini oshiradi, va shu yo'l bilan bemorlarning xayot sifatini yaxshilaydi. Koglumetni ARVT preparatlari bilan birgalikda qo'llanilishi ARVT preparatlariga xos bo'lgan salbiy ta'sirlarni sezilarli kamayishiga va zararli ta'sirlarini oldini olinishiga olib keladi.

SARS-CoV-2 bilan og'rigan bemorlarda koglumetning qo'llanilishi laborator va instrumental uslub ko'rsatkichlarning sezilarli yaxshilanishi bilan davom etadi.

Koglumet ta'sirida, koronavirus infeksiyali bemorlarda, tana xaroratining mo'tadillashuvi, nafas olish va yurak ritmlarining nomallashuvi yoki sezilarli yaxshilanishi qisqa muddatlarda kuzatiladi. Koglumet, kasallikning oG'rilik darajasiga qArab, COVID-19 bilan oG'riganlarda virusli pnevmoniyaning yaQQollik darajasini sezilarli kamayishiga yoki regressiyasiga olib keladi. Preparat ta'sirida SARS-CoV-2 ga nisbatan bo'lgan yuqori immun javobi qisqa muddatlarda shakllanadi.

Koglumet COVID-19 bilan og'riganlarning umumiy xolatini sezilarli yaxshilaydi. Oqibatda qisqa muddatlarda uyqu va ishtaxani normallashuvi, faollikni ortishi kuzatiladi

### **Qo'llanilishi**

#### ***Immunmodullovchi vosita sifatida:***

- Ikkilamchi immuntanqislik holatlari: o'tkir, surunkali va qaytallanuvchi infeksiyalar va infeksiyon-yalig'lanish kasalliklari;
- Teri kasalliklari: psoriasis, allergodermatozlar, o'rab oluvchi temiratki;
- Virusli, bakterial va zamburug'etiologiyali urogenetal infeksiyalar: ureomikoplazma etiologiyali surunkali uretrit, kolpit va mikotik etiologiyali surunkali endoservisit, bakterial vaginoz, xlamidiyali-bakterial etiologiyali surunkali uretrit va boshqalar;

#### ***Virusga qarshi vosita (tsitokin induktsiyalovchi) sifatida:***

- Parazitar etiologiyali kasalliklar, toksoplazmoz, xlamidioz;
- surunkali V, S gepatitlar;
- SMV;
- Gerpes;
- OITV bilan infeksiyalanish va OITS;
- Coronaviridae oilasi, shu jumladan SARS-CoV-2 bilan bo'g'lik virusli kasalliklarda

### **Qo'llash usuli va dozalari**

Ichga. Preparat kasallikning nozologik shakliga ko'ra, monoterapiya yoki majmuaviy davolash tarkibida, ovqatdan 30-60 minut oldin buyuriladi.

#### ***Koglumetni immunmodullovchi sifatida qo'llanilishi:***

- ikkilamchi immuntanqislik holatlarida 1 tabletkadan kuniga 2 yoki 3 marta 10-15 kun davomida buyuriladi;

- teri kasalliklarida va bakterial, virus va zamburug'etilogiyali urogenetal infeksiyalarda 1 tabletkadan kuniga 2 yoki 3 marta 14 kun davomida buyuriladi.

### **Koglumetni virusga qarshi (tsitokin indusirlovchi) vosita sifatida qo'llanilishi:**

- surunkali V va S gepatitlarida 1 Tabletkadan kuniga 2 yoki 3 marta 2 oygacha;

- surunkali hujayra ichki infeksiyalarida (TORCH-infeksiyalar): tsitomegalovirus, herpes infeksiya (oddiy va o'rab oluvchi herpes), toksoplazmoz va xlamidiozda 1 tabletkadan kuniga 2 yoki 3 marta buyuriladi. Davolash kursi 1 oygacha davom etadi.

Zaruriyat tug'ilganda davolash muddatlari uzaytiriladi yoki qo'shimcha davo kurslari belgilanadi. Davo kurslari orasidagi muddat 1 oydan oshmasligi kerak.

- OITV bilan infeksiyalanishining barcha bosqichlarida qo'llaniladi. OITV infeksiyasining boshlanG'ich bosqichlarida koglumet monoterapiya sifatida qo'llaniladi. Inson ITV infeksiyasining avj olib boruvchi bosqichlarida, xamda "OITV/tuberkulez" va "tuberkulez /OITV" shaklidagi miks-infeksiyalarida ARVT preparatlarini koglumet bilan birgalikda qo'llash kerak.

OITV infeksiyalanish va Oitsdagi dozalar va davoning davomiyligi: 1 Tabletkadan kuniga 2 marta, yo'ldosh jigar, kamqonlik va tuberkulez kasalliklarida esa - 1 tabletkadan kuniga 3 marta. Davoning davomiyligi 6 oydan kam bo'lmasligi, davo kurslari orasidagi muddat esa 3 oydan ortmasligi kerak.

- Coronaviridae oilasi, shu jumladan SARS-CoV-2 bilan boG'liq virusli kasalliklarda 2 tabletkadan kuniga 3 marta. Zarur xolatlarda dozalash oshirilishi mumkin: 4 tabletkadan kuniga 2 marta. Davolash muddati 15 kundan 30 kungacha.

### **Nojo'ya ta'sirlari**

Preparat yaxshi o'zlashtiriladi. Biror bir salbiy ta'siri aniqlanmagan.

### **Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar**

Preparat komponentlariga bo'lgan yuqori sezuvchanlik.

### **Dorilarning o'zaro ta'siri**

Koglumetning bazis terapiya preparatlari bilan o'zaro nomutanosiblik holatlari aniqlanmagan.

## **Maxsus ko'rsatmalar**

Koglumet aralash immun javobi induktori xususiyatlarini namoyon qiladi: nisbatan engil immuntanqisliklarida pereparat ta'sirida hujayra immunitetining (Th1 tur) faollashuvi, nisbatan oG'irroq immuntanqisliklarida esa immunitetning gumoral turining (Th2) nisbatan kuchliroq faollashuvi kuzatiladi.

OITV bilan infisirlanganlarda preparat qAbul qilinishidagi tanafuslar koglumetga nisbatan rezistentlikni keltirib chiqarmaydi.

### **Homiladorlik, laktasiya davrida va bolalarda qo'llanilishi**

Koglumet kam toksik dori vositalari guruhiga kirganligi tufayli laktasiya va xomiladorlik davrida, shu jumladan xomiladorlikning birinchi uch oyligida ham qo'llanilishi mumkin, bundan xomiladorlik toksikozi davri mustasno.

Preparat ikki va undan katta yoshdagi bolalarda qo'llanishi mumkin.

### **Avtomobilni va murakkab mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri**

Ferrokomedning avtotransportni boshqarish va boshqa mexanizmlardan foydalanish qobiliyatiga ta'siri yuzasidan tadqiqotlar o'tkazilmagan

## **Dozani oshirib yuborilishi**

Koglumet kam toksik vositalar gruxiga mansub bo'lganligi sababli, uning dozasini oshirib yuborish xisobga kelib chiqishi mumkin bo'lgan intoksikasiya xolatining extimoliyati nihoyatda kam.

## **Chiqarilish shakli**

Tabletkalar, blister yoki flakonlarda, tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga.

## **Saqlash sharoiti**

Quruq va yorug'likdan himoyalangan joyda, 25<sup>o</sup> C yuqori bo'lmagan haroratda va bolalar ololmaydigan joyda saqlansin

## **Yaroqlilik muddati**

3 yil.

Yaroqlilik muddati o'tganidan keyin qo'llanilmasin.

## **Dorixonalardan berish tartibi**

Resept bo'yicha.

## **Ishlab chiqaruvchi**

"A.B.- BOKOM" MCHJ

Kompaniya o'z maxsuloti sifati va istemolchilar sog'ligi xaqida o'ylaydi. Shuni inobatga olgan xolda, preparat xaqida sizning fikr va muloxazalaringiz, uning effektivligi yoki nojuya ta'siri kuzatilgan xollarda, shuningdek dori vositasi xaqida sizlar uchun muxim bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha bizga yozma yoki telefon orqali murojat etishingizni so'raymiz

**A.B.-BIOKOM**  
Farmasevtik kompaniya

100053. Toshkent shaxri,  
ezgulik ko'chasi, 27 uy

[biokom.uz@yandex.ru](mailto:biokom.uz@yandex.ru)

+99890 350-20-51

[www.biokom.uz](http://www.biokom.uz)